

**XX ASR JAZ MUSIQASIDA JANR EVOLUTSIYASI**

Shernazarova Umida Chori qizi

Surxondaryo viloyati Sherobod tumani

8-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi fortepiano o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr davomida jaz musiqasining janriy evolutsiyasi tarixiy-madaniy va musiqiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Jazning shakllanish davri – ragtime va New Orleans uslubidan boshlab, swing, bebop, cool jaz, free jaz hamda jaz-fusion janrlarigacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlari ilmiy asosda yoritiladi. Taraqqiyot jarayonida jaz janrlarining o'zaro farqli uslubiy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi hamda har bir janrning shakllanishiga hissa qo'shgan mashhur vakillar ijodiga bir nazar tashlanadi. XX asr jaz san'ati janriy differentsiallashtiruv va uslubiy boyish jarayoni sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: jaz, janr evolutsiyasi, ragtime, blues, dixeland, swing, bebop, cool jaz, hard bop, modal jaz, jaz fusion, free jaz, latin jaz, smooth jaz.

Аннотация: В данной статье анализируется жанровая эволюция джазовой музыки XX века в историко-культурном и музыкально-теоретическом аспектах. Рассматриваются этапы становления джаза — от рэгтайма и новоорлеанского стиля до свинга, бибоба, кул-джаза, фри-джаза и джаз-фьюжн. В процессе развития проводится сравнительный анализ стилевых особенностей различных направлений джаза, а также даётся краткий обзор творчества выдающихся представителей, внесших значительный вклад в формирование каждого жанра. Джазовое искусство XX века оценивается как процесс жанровой дифференциации и стилевого обогащения.

Ключевые слова: джаз, жанровая эволюция, рэгтайм, блюз, диксиленд, свинг, бибоп, кул-джаз, хард-боп, модальный джаз, джаз-фьюжн, фри-джаз, латин-джаз, смус-джаз.

Abstract: This article analyzes the genre evolution of jazz music in the twentieth century from historical-cultural and music-theoretical perspectives. The stages of jazz development are examined, beginning with ragtime and the New Orleans style, and continuing through swing, bebop, cool jazz, free jazz, and jazz fusion. The study provides a comparative analysis of the distinctive stylistic features of various jazz genres and offers a brief overview of prominent representatives who contributed significantly to the formation of each direction. Twentieth-century jazz art is evaluated



as a process of genre differentiation and stylistic enrichment within the global musical culture.

Keywords: *jazz, genre evolution, ragtime, blues, dixieland, swing, bebop, cool jazz, hard bop, modal jazz, jazz fusion, free jazz, Latin jazz, smooth jazz.*

XX asr jahon musiqa madaniyati taraqqiyotida jaz san'ati alohida fenomen sifatida shakllandi. Ushbu janr afro-amerikalik musiqiy an'analar, blyuz, spiritual va ragtime negizida shakllanib, qisqa vaqt ichida mustaqil badiiy-estetik tizim darajasiga ko'tarildi. Jazning rivojlanish jarayoni musiqiy tilning yangilanishi, ritmik va garmonik tizimlarning murakkablashuvi hamda ijrochilik madaniyatining takomillashuvi bilan tavsiflanadi. XX asr davomida jaz ichki janriy differentsiallasuv jarayonini boshdan kechirdi. Natijada dixieland, swing, bebop, cool jaz, hard bop, modal jaz, jaz fusion, free jaz, lotin jaz, smooth jaz kabi turli jaz janrlari shakllandi. Har bir janr o'ziga xos ritm, ohang va garmoniya, improvizatsiya, instrumentatsiya, struktura va shakl hamda janrga xos texnik elementlari bilan ajralib turadi. Ushbu jarayon jazning doimiy rivojlanish va yangilanishga moyilligini ko'rsatadi. Ushbu maqolada tarixiy-tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi:

- Har bir janrning shakllanish davri, asosiy musiqiy xususiyatlari va mashhur ijodkorlar ijodi o'rganildi.

- Janrlararo o'zaro bog'liqlik va evolyutsion rivojlanish daraxt modeli orqali vizual tarzda tasvirlandi.

- Nazariy va empirik manbalar (ilmiy maqolalar, ensiklopediya, ijodkorlar ijodi) tahlil qilindi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, jaz janrining evolutsiyasi zamonaviy musiqiy tafakkur va janrlararo integratsiya jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, jaz janrlarini bir-biridan farqlash va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tizimli ravishda o'rganish ilmiy ahamiyat kasb etadi, chunki bu har bir jaz janrlarining estetik, ritmik va stilistik boyligini yoritib beradi hamda musiqiy ijodiy tafakkur rivojiga hissa qo'shadi. Albatta jaz janrlarini to'liq tushunishimiz uchun janr so'ziga alohida toxtalib o'tishni joiz deb topdim. Janr bu musiqaning tarixiy ravishda shakllangan turi bo'lib, asarning qaysi turga mansubligini belgilaydi. U kuyning yoki qo'shiqning ohang, ritm, melodik va ijro xususiyatlariga asoslanib turlarga ajratish imkonini beradi. Musiqa san'ati murakkab va ko'p qatlamli tizim bo'lib, uni biologik model-daraxt orqali tushuntirish mumkin. Ushbu metafora musiqaning tarixiy rivojlanishi, janrlar shakllanishi va ularning ichki tasnifini yoritishga yordam beradi.



Birinchi o‘rinda men janr haqida to‘liqroq tushinib olishni avzal ko‘rdim. Janr bu musiqaning tarixiy ravishda shakllangan turi bo‘lib, asarning qaysi turga mansubligini belgilaydi. U kuyning yoki qo‘shiqning ohang, ritm, melodik va ijro xususiyatlariga asoslanib turlarga ajratilish imkonini beradi. Musiqa san‘ati — bu oddiy tovushlar yig‘indisi emas, balki murakkab, ko‘p qatlamli va doimiy rivojlanib boruvchi tirik tizimdir. Uni biologik model — daraxt tuzilishi orqali tasvirlash musiqaning tarixiy shakllanishi, janrlar evolyutsiyasi va ularning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy hamda estetik jihatdan yoritishga imkon beradi. Ildiz: tarixiy-madaniy asos. Har qanday daraxt ildiz orqali oziqlanadi. Musiqaning ildizi esa insoniyatning qadimiy tajribasiga borib taqaladi: marosim qo‘shiqlari, mehnat qo‘shiqlari, diniy ohanglar, folklor namunalari. Aynan shu qatlam musiqaning dastlabki funksiyalarini — marosimiy, kommunikativ va estetik vazifalarni shakllantirgan. Ilmiy nuqtai nazardan, bu bosqich musiqaning etnomadaniy genezisi hisoblanadi. Ildiz qanchalik chuqur bo‘lsa, daraxt shunchalik mustahkam bo‘ladi. Xuddi shuningdek, musiqa ham o‘z tarixiy xotirasi bilan yashaydi. Tana: musiqaning universal poydevori. Daraxt tanasi barcha shoxlarni birlashtiradi. Musiqada bu — nazariy asos: ritm, melodiya, garmoniya, tembr. Ushbu komponentlar barcha janrlar uchun umumiy strukturaviy birlikni tashkil etadi. Bu bosqichni musiqaning nazariy-universal poydevori deb atash mumkin — u bo‘lmasa, janrlar o‘rtasida yaxlitlik mavjud bo‘lmas edi. Asosiy shoxlar: janrlar klassifikatsiyasi. Daraxt tanasidan yirik shoxlar ajraladi. Musiqada ular asosiy janrlar sifatida namoyon bo‘ladi: Akademik (klassik) musiqa, xalq (folklor) musiqasi, estrada va ommaviy musiqa, diniy musiqa. Masalan, akademik musiqa an‘anasi doirasida *The Magic Flute* kabi sahnaviy asarlar yoki *Symphony No. 5* kabi monumental simfonik asarlar shakllangan. Bu jarayon musiqashunoslikda janr differensiasiyasi deb yuritiladi — ya‘ni musiqa tizimining ichki ixtisoslashuvi. Shoxchalar: subjanr va yo‘nalishlar. Har bir asosiy janr vaqt o‘tishi bilan ichki tarmoqlanishni boshdan kechiradi:

- Klassik musiqa → simfoniya, opera, kantata
- Rok → alternativ rok, hard rok, pank rok
- Elektron musiqa → house, techno, trance

Masalan, rok musiqasi rivojida *The Beatles* ijodi klassik rok asoslarini mustahkamlasa, *Nirvana* alternativ yo‘nalishning ommalashuviga kuchli turtki berdi. Bu jarayon biologik evolyutsiyani eslatadi: ijtimoiy o‘zgarishlar, texnologik taraqqiyot va madaniy integratsiya yangi musiqiy shakllarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu hodisa janr evolyutsiyasi va transformatsiyasi sifatida talqin etiladi. Barglar va mevalar: individual ijod mahsuli. Daraxtdagi har bir barg betakror bo‘lganidek, har bir musiqiy



asar ham individual ijod mahsulidir. Masalan, Ludwig van Beethoven simfonik janri yangi dramatik darajaga olib chiqdi, Johann Sebastian Bach esa polifonik tafakkurni mukammallashtirdi. Kompozitor yoki ijrochining shaxsiy uslubi janr doirasida yangi estetik talqinlarni yuzaga keltiradi. Shu tariqa musiqa san'ati doimiy yangilanish jarayonida yashaydi. Musiqaning "o'sish jarayoni" quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- Ijtimoiy-madaniy muhit
- Texnologik innovatsiyalar (yozuv studiyalari, raqamli platformalar)
- Globalizatsiya va madaniy almashinuv
- Individual ijodkorlik

Bu omillar daraxtni oziqlantiruvchi quyosh va suv vazifasini bajaradi. Musiqa — tizimli, ko'p qatlamli va evolyutsion rivojlanishga ega san'at turidir. Uni daraxt modeli orqali tasvirlash janrlar o'rtasidagi ierarxik bog'liqlikni va ularning tarixiy shakllanish jarayonini tushuntirishda samarali metod hisoblanadi. Janrlar daraxt shoxlari kabi o'sadi, kengayadi va yangi tarmoqlarni yuzaga keltiradi, biroq ularning barchasi yagona ildiz — insoniyat madaniyatiga borib taqaladi. Musiqa daraxti yashaydi, o'sadi va har bir yangi asar bilan yana bir yashil barg chiqaradi.

Bilamizki jaz — XX asr boshlarida New Orleans shahrida shakllangan va keyinchalik butun dunyoga yoyilgan musiqiy yo'nalishdir. U afro-amerika musiqiy an'analari, blyuz, ragtime va diniy qo'shiqlar sintezi asosida vujudga kelgan. Ragtime va blues jazdan oldingi asoslar hisoblanadi, ular alohida jaz janri bo'lib shakllanmagan. Ragtime (1890-1915). Asosan pianino uchun yozilgan. Improvizatsiya deyarli yo'q. Ragtime-jaz emas, lekin jaz ritmik asosining shakllanishiga kuchli ta'sir qilgan. Mashhur vakili Scott Joplin hisoblanadi. Blues (1890-yillar). 12 taktli blues shakli, emotsional, dardli ohang u jazning melodik va garmonik tiliga asos bo'lgan. Mashhur vakili B.B.Kingdir. Ragtime va Blues jazning:

-Ritmik (ragtime)

-Melodik va garmonik (blues) asoslarini yaratgan musiqiy ildizlar hisoblanadi.

Jaz tarixida birinchi to'liq shakllangan yo'nalish sifatida Diksilend jazi alohida o'rin egallaydi. U XX asr boshlarida New Orleans shahrida yuzaga kelgan bo'lib, jazning dastlabki professional sahnaviy shakli sifatida tan olinadi. Mazkur uslub afro-amerika musiqiy an'analari hamda Yevropa cholg'u ijrochiligi tajribasining sintezi asosida shakllangan. Diksilend jazining eng muhim belgisi — kollektiv improvizatsiya. Unda bir vaqtning o'zida bir nechta cholg'u asboblari mustaqil, biroq o'zaro uyg'un holda improvizatsiya qiladi. Natijada ko'p qatlamli, jonli va harakatchan musiqiy to'qima yuzaga keladi. Diksilend jazining taraqqiyotida Louis Armstrong beqiyos hissa



qo‘shgan. U dastlab aynan shu uslub doirasida ijod qilib, keyinchalik jaz tarixida yakkaxon improvizatsiya madaniyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Armstrong ijodi Diksilend an‘analarini saqlagan holda, jazni global san‘at darajasiga ko‘tardi. Swing — jaz tarixida 1930–1940-yillarda yuksak ommalashgan yo‘nalish bo‘lib, ayniqsa United Statesda keng tarqalgan. Bu davr hatto “Swing davri” nomi bilan ham tilga olinadi. Swingning asosiy belgisi — “swing feel”, ya‘ni tebranma, oqimli va raqsqa mos ritmni ichki his qilishdir. Unda urg‘ular tekis emas, balki mayin siljish bilan ijro etiladi, bu esa musiqaga o‘ziga xos harakat va yengillik bag‘ishlaydi. Uslubning markazida big band orkestrlari turadi. Katta tarkibli ansambllar (saksofonlar, trubalar, trombonlar va ritm guruhi) boy, qudratli va qatlamli tovush hosil qiladi. Swing asosan raqs zallari va klublar uchun yaratilgan bo‘lib, ommaviy madaniyatning muhim qismiga aylangan. Mazkur yo‘nalishning mashhur namoyandalari — Duke Ellington va Count Basie. Ularning orkestr uslubi swing estetikasini mukammal darajada namoyon etgan. Swingni qanday tanish mumkin? Uni eshitganingizda beixtiyor raqsqa tushgingiz keladi, orkestr tovushi esa katta, boy va tantanavor eshitiladi. Aynan shu jo‘shqinlik va ritmik tebranish swingning asosiy ruhini belgilaydi. Bebop — 1940-yillarda shakllangan va jaz tarixida yangi bosqichni boshlab bergan yo‘nalishdir. U asosan professional musiqachilar muhitida rivojlanib, murakkab musiqiy tafakkur va yuqori ijro mahoratini talab qilishi bilan ajralib turadi.

Bebopning asosiy xususiyatlari:

- Juda tez tempo
- Murakkab akkord almashinuvlari
- Yakka (individual) improvizatsiyaning ustunligi.

Bu janr swingdan farqli ravishda raqs uchun emas, balki tinglash, tahlil qilish va ijrochining texnik salohiyatini namoyish etish uchun yaratilgan. Musiqiy tuzilma intellektual va erkin bo‘lib, improvizatsiya markaziy o‘rin egallaydi. Bebopning eng mashhur vakillaridan biri — Charlie Parker bo‘lib, u ushbu uslubning shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Bebop jaz san‘atini ommaviy raqs musiqasidan professional, murakkab va tinglovchidan faol idrokni talab qiluvchi san‘at darajasiga olib chiqqan yo‘nalish sifatida ahamiyatlidir. 1940-yillar oxiri va 1950-yillar boshida, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda United States jamiyatida barqarorlik va intellektual muhit kuchaydi. San‘atda keskinlik va tezkorlikdan ko‘ra, ichki muvozanat hamda estetik sokinlikka ehtiyoj paydo bo‘ldi. Bebopning murakkab va tez uslubidan farqli ravishda, tinglovchilar yumshoqroq, hissiyotga boy va nazokatli ohangni qidira boshladilar. Ana shu ijtimoiy-madaniy sharoit cool jazzning



shakllanishiga zamin yaratdi. U jaz musiqasiga yumshoqlik, tiniqlik va intellektual ohang olib kirgan. Uslubning asosiy belgilari sokin va nazoratli ijro, yumshoq dinamika, murakkab, ammo silliq garmoniya, hissiyot va kayfiyatga urg‘u hisoblanadi. Cool jazz ko‘proq tinglash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u kechki payt sokin kafe muhitini eslatuvchi mayin va chuqur ohangga ega. Unda keskin improvizatsiyadan ko‘ra, muvozanat va estetik nazokat ustun turadi. Mazkur yo‘nalishning shakllanishida Miles Davis muhim rol o‘ynagan. Uning Birth of the Cool albomi cool jazzning dastlabki namunalaridan biri bo‘lib, ushbu uslubning asosiy estetik tamoyillarini belgilab berdi. Cool jazz jaz tarixida hissiy chuqurlik va musiqiy soddalik uyg‘unligini ifodalovchi muhim bosqich sifatida e‘tirof etiladi. Hard bop — 1950–1960-yillarda shakllangan bo‘lib, bebopning murakkab improvizatsion asosini saqlagan holda unga blues, gospel va rhythm & blues ruhini qo‘shgan yo‘nalishdir. U kuchli groove, barqaror ritm va hissiyotga boy ifoda bilan ajralib turadi. Bu uslub cool jazzning sokin va intellektual ohangiga javoban paydo bo‘lib, yanada “issiq”, yerga yaqin va jo‘shqin tovush estetikasi bilan shakllangan. Hard bopda ritm guruhi faol va bosimli yangraydi, improvizatsiya esa dramatik va ekspressiv xarakter kasb etadi. Yo‘nalishning yorqin namoyandalaridan biri — Art Blakey bo‘lib, uning ijodi hard bopning energiyasi va ruhini yaqqol ifodalaydi. Hard bop jaz tarixida texnik murakkablik bilan xalqona hissiyot uyg‘unlashgan muhim bosqich sifatida e‘tirof etiladi. Modal jazz — 1950-yillar oxirida shakllangan va akkordlarga emas, lad (mode) asosida qurilgan yangi jaz yo‘nalishidir. Ushbu yondashuvda akkordlar tez-tez almashmaydi; musiqachi ma‘lum bir lad ichida improvizatsiya qiladi, bu esa musiqaga kengroq erkinlik va chuqur hissiy rang beradi. Modal jazning mashhur vakili — Miles Davis. Uning Kind of Blue albomi modal jazning eng muhim namunalaridan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalish jaz tarixida ritmik va harmonik murakkablikdan ko‘ra hissiyot va tonal muvozanatga urg‘u beruvchi muhim bosqich sifatida qadrlanadi. Jazz fusion — 1960–1970-yillarda shakllangan va jazni rok, funk hamda elektron musiqaning elementlari bilan uyg‘unlashtirgan yo‘nalishdir. U an‘anaviy jaz improvizatsiyasini saqlagan holda, yangi texnologiyalar va asboblarni — elektron gitara, sintezator va elektron pianino — ijroga kiritdi. Fusionning eng mashhur vakillaridan biri — Herbie Hancock. Uning ijodi jazz fusionning innovatsion ruhini va zamonaviy musiqiy tajribasini mukammal namoyon etadi. Bu yo‘nalish jaz tarixida texnik mahorat, ritmik murakkablik va zamonaviy elektron ovozlarning uyg‘unlashuvi orqali yangi estetik maydon ochgan bosqich sifatida e‘tirof etiladi. 1950–1960-yillarda jaz dunyosida yangi intellektual va ijtimoiy muhit shakllandi: ijtimoiy erkinlik, madaniy yangilanish va avangard san‘atga



qiziqish kuchaydi. Shu davr sharoiti free jazzning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Free jazz — an'anaviy jaz qoidalarini, ritm va garmoniyani buzish orqali maksimal erkinlik yaratadigan yo'nalishdir. Uning xususiyatlari: an'anaviy akkord yo'q, aniqlangan ritm va forma bo'lmasligi mumkin, juda erkin improvizatsiya, ba'zida tartibsiz eshitiladi. Ushbu yo'nalishning asoschisi — Ornette Coleman bo'lib, u free jazning estetik va intellektual chegaralarini belgiladi. Free jazz musiqiy qoidalarni buzish orqali maksimal erkinlikni, ijodiy ekspressiyani va tajriba ruhini targ'ib qiluvchi avangard bosqich sifatida e'tirof etiladi. Free jazz va avangard yo'nalishlarning erkinligi va tajriba ruhidan keyin, jaz musiqasida Latin jazz shakllana boshladi. Bu janr jaz va Lotin Amerika, asosan Cuba hamda Brazil musiqiy an'analari sintezidan vujudga kelgan. Latin jazzda jaz texnikasi — improvizatsiya va garmonik murakkablik — Latin ritmlari bilan uyg'unlashadi: samba, mambo, bossa nova, cha-cha-cha va rumba. Natijada ritmik va melodik jihatdan juda jonli, raqsga mos va quvnoq musiqiy uslub hosil bo'ladi. Ushbu yo'nalishning mashhur vakili — Dizzy Gillespie bo'lib, u Latin jazni global musiqiy sahnaga olib chiqqan. 1970–1980-yillarda jamiyatda shahar hayoti tezlashdi, ish va kundalik stress oshdi. Shunday muhitda tinglovchilar oson, sokin va estetik jihatdan yoqimli musiqaga ehtiyoj sezishdi. Shu sharoit smooth jazzning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Smooth jazz — jazning yumshoq, sokin va oson tinglanadigan shakli bo'lib, melodiyasi romantik va yodda qoladigan frazalardan iborat. U jaz garmoniya uslubini saqlaydi, ammo murakkab improvizatsiya va tezkor akkord almashinuvlari kamroq bo'ladi. Smooth jaz kino va televideniye fon musiqasi, restoranlar va jaz klublari muhitiga juda mos keladi. Tinglash oson va stressni kamaytiruvchi xususiyati bilan mashhur. Eng taniqli vakili — Kenny G bo'lib, uning ijodi smooth jazni global auditoriyaga tanitgan.

XX asr jaz musiqasi janr evolutsiyasi nuqtai nazaridan noyob tarixiy va madaniy fenomen sifatida qaraladi. Ragtime va New Orleans uslubidan boshlab, swing, bebop, cool jaz, hard bop, modal jaz, jazz fusion, free jaz, Latin jazz va smooth jazz kabi yo'nalishlar shakllanishi jazning doimiy rivojlanish va yangilanishga moyilligini ko'rsatadi. Har bir janr o'ziga xos ritmik, melodik, garmonik va improvizatsion xususiyatlar bilan ajralib turadi, shuningdek, zamonaviy musiqiy tafakkur, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy-madaniy muhitdan ta'sir oladi. Jaz janrlarining evolyutsiyasi nafaqat tarixiy rivojlanishni, balki musiqiy ijodkorlik va yangi estetik tendensiyalarni tushunishga yordam beradi. Shu bois, kelajakda jazni o'rganishda quyidagi takliflar muhim:



1. Har bir janr va subjanrning o‘ziga xos texnik va stilistik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish.

2. Ijodkorlar ijodi va ularning janr rivojiga qo‘shgan hissasini sistematik o‘rganish.

3. XX asr jazining global madaniyatdagi o‘rni va boshqa janrlar bilan integratsiyasini aniqlash.

4. Musiqa ta’limida janr evolyutsiyasini vizual va interaktiv metodlar orqali tushuntirish, masalan, jaz daraxti modeli kabi. Shunday qilib, XX asr jaz san’ati janr differensiallashuvi va uslubiy boyish jarayoni orqali musiqiy madaniyatning boy va murakkab tizimini yaratgan, va bu jarayon bugungi kunda ham zamonaviy musiqiy tafakkur va ijodiy yondashuvlar uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gioia T. The History of Jazz. New York: Oxford University Press, 2011.
2. Gridley M. C. Jazz Styles: History and Analysis. Pearson, 2019.
3. Berliner P. F. Thinking in Jazz: The Infinite Art of Improvisation. University of Chicago Press, 1994.
4. Shipton A. A New History of Jazz. London: Continuum, 2007.
5. Kernfeld B. The New Grove Dictionary of Jazz. 2nd ed. London: Macmillan, 2002.
6. Davis M., Troupe Q. Miles: The Autobiography. Simon & Schuster, 1989.